
JIZZAX VOHASI QIRG‘IZLARINING AN’ANAVIY HUNARMANDCHILIKDA NAQSHLARNING SEMANTIK TAHLILI (GILAMDO‘ZLIK MISOLIDA)

Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot
instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotasiya:

Ushbu maqolada Jizzax vohasining gilamchilik bilan bog‘liq urf-odat va marosimlari, gilam va gilamdo‘zlik mahsulotlari tayyorlashning hududga xos jihatlari, gilamlarni to‘qish, sovg‘a qilish va saqlashga oid oilaviy qadriyatlar, rasm-rusumlarda aks etadigan lokal jihatlar ilmiy adabiyotlar hamda dala etnografik ma'lumotlar qiyosiy tahlili asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Gilamdo‘zlik, ranglar semantikasi, islamiy naqshlar, urf-odat va marosimlar, sep gilam, to‘yona gilam, hashar oshi, julbaroq, g‘ojari gilam, terma gilam, bo‘sag‘a gilam, olacha gilam, julxirs gilam..

Аннотация:

В данной статье описываются традиции и обряды ковроткачества в Джизакском оазисе, региональные аспекты ковроткачества и ковроткачества, семейные ценности ковроткачества, дарения и хранения, локальные аспекты, отраженные в росписях на основе сравнительного анализа научной литературы. и полевые этнографические данные.

Ключевые слова: Ковроткачество, семантика цвета, исламские узоры, обычаи и ритуалы, ковры сеп, ковры туйона, хашар оши, джулбарок, ковры годжари, национальные ковры, ковры босага, ковры олача, ковры джулксирс.

Abstract:

In this article. It is heglighbted traditions and ceremonies of carpet weaving in Jizzakh oasis, regional aspects of carpet and carpet weaving, family values of carpet weaving, gift and storage, local aspects reflected in the paintings

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30th April 2026

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

on the basis of comparative analysis of scientific literature and field ethnographic data.

Keywords: Carpet weaving, color semantics, Islamic patterns, customs and rituals, sep rugs, tuyona rugs, hashar oshi, julbaroq, gojari rugs, national rugs, bosaga rugs, olacha rugs, julxirs rugs.

To‘quvchilik buyumlarida taraqqiy etgan naqsh-bezaklarda har bir xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, falsafasi, xo‘jalik faoliyati, urf-odat va marosimlari ham aks etadi. Qolaversa, buyumlar shakli, unga uyg‘un holda bo‘linishi va berk handasiy maydon, hoshiya, yo‘l, turunjlargacha bo‘ysundirilgan o‘simlik va yozuvli naqsh mujassamoti ularga uzluksiz harakat, kuch, cheksizlik, barqaror sokinlik hissini baxsh etish bilan birga hayot jo‘shqinligi hamda abadiyligini yaratdi.

Demak, inson moddiy muhitdan tashqari, ramziy olamda ham yashaydi. Inson o‘z tarixining ilk davrlarida ma‘nolar dunyosida yashagan, dunyoni ramzlar orqali qabul qilgan, tabiat bilan ramzlar orqali munosabatda bo‘lgan. Shunga ko‘ra, inson o‘zi yaratgan buyumlarni nomlashi to‘la ma‘noda ramzlar tili deyish mumkin. Ramzlar o‘z-o‘zidan shakllanmagan, ular insonning tafakkuri va bilish mahsuli sifatida vujudga kelgan [1, b. 74].

Ramzlar orqali bizning ongimizda kishilarni yagona etnomadaniy hamjamiyatga birlashtiradigan madaniyatning eng muqaddas qirralari ochiladi, aqlga sig‘maydigan, inson anglay olmaydigan ma‘nolar ham yuzaga chiqadi [2, b. 189]. Ramzni o‘zining o‘ziga xos belgisi, obyekt, predmeti bilan aloqasini yo‘qotgan ma‘no sifatida qabul qilishidir. Yu.M.Lotmanning qayd qilishicha, ramzlar “madaniy majmuaning eng barqaror elementlardan biri” hisoblanadi [3, b. 19]. Shunday ekan, ramzlar lingvomadaniy zaminning barqaror birliklari hisoblanadi. Ular turmush qoidalariga aylangan kuzatishlarni mustahkamlaydi.

Ta‘kidlash joizki, gilam to‘qish jarayonida foydalaniladigan oddiy naqshlar haqida ma‘lumot beriladigan bo‘lsa, dastlab uning gullari, naqsh-bezaklari va to‘qish uslublari haqida qayd etib o‘tish mumkin. Jumladan, gilamlar to‘qishda turli xil naqshlarni aks ettirishda uning boshlang‘ich elementlari va gullarini aks ettirish bosqichlari muhim ahamiyatga ega.

Gilamlarning naqsh-gullari xilma-xil rangda va turli shakllarda bo‘lib,

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30th April 2026

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

naqshlar semantikasi asosan o‘simliksimon (*islmiy*) va geometrik (handasaviy) ko‘rinishlarda aks ettiriladi. Bu gul-naqshlar odatda maxsus mutaxassis rassomlar tayyorlagan eskizlar asosida to‘qiladi, tikiladi va bosiladi. Masalan, sharq-turkiston gilamlari naqshlarini quyidagi turlarga bo‘lib ko‘rsatish mumkin:

Turli tarixiy bosqichlarda amaliy san‘at, hunarmandchilikning asosiy hayotiy mazmuniga ko‘ra ip matolar ishlab chikarish, ipakchilik, zargarlik, kulolchilik, charm, tosh, yog‘och va metallga ishlov berish kabi turlari saqlanib qolishi bilan birga gilamdo‘zlik va gilam mahsulotlari tayyorlash ham rivojlanib bordi.

Jizzax vohasining aynan tog‘ va tog‘oldi mintaqalarida yashovchi qirg‘iz aholisining gilam yoki gilamdo‘zlik buyumlarida tog‘ belgilarini ko‘p ifoda etilishi, aholining qadimda ko‘chmanchi turmush tarziga asoslanganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, gilamdagi uzun chiziqlar tasviri yo‘llarni solish, *it tovon* deb atalgan nusxani *julbaroq* gilamining chetiga solinishi ham aholining ko‘chmanchi yoki yarim o‘troq hayotiga mosdir. Ayniqsa, it tovon naqshida itning insonga nisbatan sadoqati, vafodorligi va chorvaning qo‘riqchisi bo‘lgan yagona hayvon ekanligini ifodalaydi. Shuningdek, *ittovon* – nusxasida gilamning to‘rtburchagiga to‘rtta no‘xatdek xol tushirilishi, chillali kelinchak va yosh go‘dakni yomon ko‘zlardan asrash maqsadida ham ushbu ramziy ma‘noga ega bo‘lgan ko‘chat tushirilgan.

Bundan tashqari vohada, *solmacha nusxa* – gilamda aks ettirilgani qo‘rg‘on, uy, degan ma‘nolarni anglatadi, *Qo‘chkrek* – (qo‘chqor shoxi), degan nusxa to‘kinchilikni, inson rizqini butun bo‘lishi va himoyani bildirgan. Qo‘chqor boshi yoki shoxi bezagi tasviri qadimiy turkiy elatlarning ko‘pchiligida urug‘ boshi hisoblangan Ona Bo‘ri, Ko‘k Bo‘ri ruhini chaqirish “atributika”si mazmunini ham beradi. Rivoyatlarga ko‘ra, turkiylarning eng ulug‘ urug‘lari (ashina) ona bo‘ri va shahzodadan tarqalgan, degan ma‘lumotni ham keltirish mumkin [4, № 1-2-3].

Yulduz – ko‘chatning shu nomdagi tasviri gilamda insonlarning koinotga intilishi, koinot bilan bog‘liq tasavvurlarni aks ettiradi. Gilam nusxalarida yomg‘ir tasvirlarini aks ettirilishi dehqonlarga xos bo‘lib, bu nusxalar asosan yil qirg‘oqchilik bilan boshlanganda ushbu ko‘chat gilamga ramziy ma‘noda tushirilgan.

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30th April 2026

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

Jizzax vohasining Zomin va Baxmal tumanlarining tog' oldi mintaqasida yashovchi qirg'iz aholisi gilamdo'zlari *g'ojari (g'ajari) sholcha* deb nomlangan gilam maxsulotlarini to'qishadi. Ushbu gilamlarga ham turli nusxalar solib to'qilgan. Gilam gullarni terish uchun alohida moslama tergich ishlatilib, u o'z navbatida gilamning gul tushadigan bezak, naqsh va gullarini ajratib turgan. G'ajari gilamga *zanjir, poshshoyi, it tovon, chiroq, qo'y ko'zi, ola qurt, ko'chkerek (qo'chqorak), panjara, taroqcha, o'q* kabi nusxa va naqshlar ham tushirishgan.

Voha aholisi gilamchiligida eng qadimgi nusxa-naqshlardan yana biri bu *poshshoyi (podshoh, shoh ma'nosida)* hisoblanib, bezak tasviri ochiq va ba'zan yopiq holatda ham to'qiladi. Yopiq holatda to'qilgan g'ajari gilam uy, qo'rg'on ma'nosini anglatga, ochiq holatda to'qilgan gilam keng daladast ma'nolarini anglatish bilan birga mehmondo'zlik belgisini o'zida mujassamlashtirgan. Shu bilan birga voha gilamdo'zligidagi *pichoq uchi* nusxasini deyarli barcha gilam turlarida uchratish mumkin. Bu nusxaning asosiy ma'nosi islom qoidalariga amal qilinishiga ishoradir. Qolaversa, pichoq qo'y so'yishda uni halolash manosida ushbu predmetning bosh qismi nusxa sifatida gilamga tushurilishi diqqatga sazovordir.

Jizzax vohasida gilamlarida aks ettirilgan naqsh-tasvirlar ramziy ma'nolariga ham egaligini kuzatish mumkin:

Yumaloq ko'chat – (qirg'izlarda, mahalliy tilda to'qaloq ko'chat). Bunda gilam hajmining katta yoki kichikligiga qarab markazlarida to'rttadan oltitagacha katta yumaloq gullar tasviri tushiriladi. Yumaloq ko'chat – olam, mukammallik, baxt, hayot, quyosh, insonlarni yovuz niyatlardan qaytarish ramzi, abadiylik, ya'ni olam doimiydir, lekin inson umri o'tkinchi degan ma'noda ifodalanadi. Bu esa hudud aholisining dunyoqarashi bilan birga *inson-tabiati-koinotning* uzviyligini aks ettiradi.

Yulduz ko'chat – (voha qirg'izlari mahalliy tilida *chechan ko'chat* deb nomlangan). Ushbu gilam hajmiga qarab markazida sakkiz yoki besh qirrali yulduz tasvirlanadi. Odatda, *sakkiz qirrali yulduzning* ramziy ma'nosi – mustahkamlik, “*Ikki dunyoing obod bo'lsin*” degan ma'noda ifodalansa, *besh qirrali yulduz* tasviri esa – hayotning kisqaligi, besh kunlik dunyo, islomning besh ustuni ma'nolarini ifoda etadi.

Patnos ko'chat – Zomin va Baxmal tumanida yashovchi qirg'iz aholisi qizlarning sepi uchun gilamga maxsus solingan bo'lib, qizning kelin bo'lib

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30th April 2026

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

boradigan uyga rizqi va nasibasi bilan borsin degan mazmunda ushbu ko‘chat naqshi voha gilamdo‘zlari tomonidan yaratilgan.

Qulfi-kalit – bir-biriga qarama-qarshi shaklda tushirilgan, shoxdor qo‘chqor kallasini eslatuvchi shakl bo‘lib, u xonadon eshigi do‘stiga ochiq, dushmanga yopiqligini bildiruvchi ramzdir.

Zanjir ko‘chati – naqsh-ramzi oila mustahkamligi va totuvligini anglatadi.

It tovon ko‘chati – ramzi uy-xonadon qo‘riqchisi, insonga vafodor hayvon ma’nolarida ifodalanadi.

Chiroq ko‘chati – naqshi ramziy ma’noda yorug‘lik va insonlarning tinchlikka, osoyishtalikka, xotirjamlikka intilishini ifodalaydi.

Qo‘y ko‘zi ko‘chati – voha aholisi orasida oilaga qut-baraka, rizq-nasiba olib kelishini anglatadi.

Ola qurt ko‘chati – tasviri oq-qora yoki qora-sariq ranglar bilan ifoda etilib, bu ramzlar tun va kunning ramziy manosini anglatadi.

Xanjar uchi, Tumorgul ko‘chati – bir-biriga o‘xshash uchburchak shakllar bir qarashda pichoqning uchi yoki tumorga o‘xshab ketadi. Go‘yoki u xonadonga qaratilgan yomon nafasni kesib, uy sohibini asrab-avaylaydi. Gilamga chiroz to‘qilmaydi, balki gilamga gir aylantirilib, 3-4 metr enlikdagi oq, qora rangli hoshiya shaklida tikiladi.

Quroqqul ko‘chati – bir-biriga zanjirsimon chirmashib ketgan tog‘ echkisining Burma shoxini eslatadi. Bu bezak gilamga ikki yosh (kelin-kuyov) bir-biri bilan qo‘sha qarisin degan niyatni ifoda etadi.

Qo‘chkarek, qo‘chgrek, qo‘chgrech (qo‘chqorak) ko‘chati – gilamchilikda ham va boshqa to‘qimachilik turlarida ham eng ko‘p uchraydigan naqsh-bezak bo‘lib, qo‘chqor shoxiga nisbat qilib olingan nusxa hisoblanadi. Bu nusxaning gilamchilikda ko‘p ishlatilishi ins-jinlardan xalos bo‘lish, himoya ma’nosida ishlatiladi.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, qadim Ustrushonaning shimoli-g‘arbiy hududlari aholisi orasida “qo‘y kulti” – “farn”ga sig‘inish ham keng yoyilganligi kuzatiladi [5, b. 39-42]. Aholi tasavvurlariga ko‘ra, qo‘y – (*shoxdor qo‘chqor*) davlatmandlik, shon-shuhrat, kuch-qudrat timsolini anglatgan. ***Qo‘y yoki qo‘chqor Farning ramzi hisoblangan, uni turli marosimlarga atab qurbonlik tarzida so‘yishgan [6, b. 86]. Shuningdek, insonlar qo‘y va qo‘chqor kabi hayvonlarga samoviy kuchlar bilan bog‘liq***

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30th April 2026

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

jonzot hamda xonadon himoyachisi, unga qut-baraka keltiruvchi ilohiy kuchga ega deb o‘ylaganlar [7, b. 16].

Har bir gilamga qadimdan uning barcha qismlarida ko‘chkerak (qochqorak) nusxasi tushurilishi odat tusiga aylangan bo‘lib bu nusxani “*shaytonning bo‘ynini sindirish*” tushunchasi sifatida talqin qilinadi. *Qo‘chgrek* nusxasi nafaqat gilamchilikda balki kashtachilik va yog‘och o‘ymakorligida ham keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Umuman olganda, voha gilamlari hozirgi kunda o‘zining bejirimligi bilan ajralib turuvchi ko‘plab tarixiy bosqichlardan o‘tib mukammal gilamchilik san‘ati namunasi sifatida bizgacha yetib kelgan. Bunday gilamchilik na‘munalari nafaqat kishilarning kundalik ehtiyojlarini qondirishi, uylarini bezashi balki ularning estetik talablarini ham qondirib kelgan. Shuningdek, insonning ma‘naviy olami haqida ma‘lumot beruvchi muhim tarixiy manbadir. Markaziy Osiyo va Eron xalqlari gilamdo‘zligi ornamentining axborotlilik ramziy, semantik va semiotik vazifalariga asoslanadi. Qolaversa, gilam naqshlarining xalqlarning diniy-magik va badiiy dunyoqarashlari aks etadi.

O‘zbek gilamdo‘zligi o‘zining milliy an‘analarini saqlagan holda yangi tajribalar bilan boyitildi. Ko‘p asrlik tarixga, alohida uslub va betakror yo‘nalishga ega o‘zbek milliy gilamdo‘zlik san‘atini yanada rivojlantirish, hududlarda shakllangan an‘anaviy maktablar faoliyatini kengaytirish, qo‘lda gilam to‘qish an‘analarini qayta tiklash, gilamdo‘z hunarmand va kasanachilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida bugun yurtimizda alohida sohagaoid milliy muzey tashkil etish vaqti keldi. Bu boradagi sa‘y-harakatlar, o‘z navbatida, milliy hunarmandlik turining noyob uslublarini saqlab qolish, kelajagimiz egalariga yetkazish, dunyo sayyohlariga keng targ‘ib etish hamda ularni mamlakatimizga jalb qilishga hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xudayberganova Z.N. Ramzlarning vujudga kelishi...- B. 74.
2. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: Ценностно-смысловое пространство языка. – М.: Флинта, Наука, 2010. – С. 189.
3. Лотман Ю.М. Символ системе культуры.// Труды по знаковым системам. – Вып 21. – Тарту, 1987. –С. 19.

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30th April 2026

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

4. Pardayev M.X. Qo‘y va bo‘ri ruhiga sig‘inishning o‘zaro bog‘liqligi haqida // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent, 1995 yil. № 1-2-3. –B. 19-27, 39-42.
5. Pardaev M. Qo‘y va bo‘ri ruhiga sig‘inishning o‘zaro bog‘liqligi haqida // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1995. № 1-3. - B. 39-42.
6. Литвинский Б. Кангюйско-сарматской фарн (К историко-культурным связям племен Южной России в Средней Азии). – Душанбе: Дониш, 1968. – С. 86.
7. Bogoslovskaya I. Qoraqalpoq naqsh san‘atida zoomorf unsurlar // San‘at. –2009.– № 2. – B. 16.

E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30th April 2026

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612
